

## RAQAMLI BANK XIZMATLARI VA FINTECH: ZAMONAVIY BANK SEKTORINING TRANSFORMATSIYASI

**Xurramova Fotima Bahodir qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Bank ishi va audit” yo’nalishi, 3-bosqich talabasi.

**E-mail:** [fotimakhon005@gmail.com](mailto:fotimakhon005@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18655108>

**Annotatsiya.** Ushbu maqola raqamli bank xizmatlari va fintech-larning zamonaviy bank tizimidagi rolini ilmiy tahlil qiladi. Maqola bank sektorida raqamlashtirish jarayoni, fintech yechimlarining joriy etilishi, ularning samaradorlik, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatiga ta’siri hamda banklar va texnologik kompaniyalar o‘rtasidagi integratsiyaning rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.

Natijalar raqamli bank xizmatlari va fintech integratsiyasi banklar resurslarini optimallashtirish, mijozlar bazasini kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

**Keywords:** raqamli bank, fintech, raqamli transformatsiya, mobil banking, moliyaviy inklyuziya, innovatsiya, bank xizmatlari.

## ЦИФРОВЫЕ БАНКОВСКИЕ УСЛУГИ И FINTECH: ТРАНСФОРМАЦИЯ СОВРЕМЕННОГО БАНКОВСКОГО СЕКТОРА

**Аннотация.** В данной статье проводится научный анализ роли цифровых банковских услуг и fintech в современной банковской системе. В статье рассматриваются процессы цифровизации банковского сектора, внедрение fintech-решений, их влияние на эффективность и качество обслуживания клиентов, а также тенденции развития интеграции между банками и технологическими компаниями.

Результаты исследования показывают, что интеграция цифровых банковских услуг и fintech способствует оптимизации ресурсов банков, расширению клиентской базы и повышению уровня финансовой инклюзии.

**Ключевые слова:** цифровой банк, fintech, цифровая трансформация, мобильный банкинг, финансовая инклюзия, инновации, банковские услуги.

## DIGITAL BANKING SERVICES AND FINTECH: THE TRANSFORMATION OF THE MODERN BANKING SECTOR

**Abstract.** This article provides a scientific analysis of the role of digital banking services and fintech in the modern banking system. The study examines the digitalization processes in the banking sector, the implementation of fintech solutions, their impact on efficiency and quality of customer service, as well as trends in the development of integration between banks and technology companies.

The results indicate that the integration of digital banking services and fintech contributes to the optimization of bank resources, expansion of the customer base, and enhancement of financial inclusion.

**Keywords:** digital banking, fintech, digital transformation, mobile banking, financial inclusion, innovation, banking services.

### **Kirish**

Raqamli bank xizmatlari va fintech sohaları global bank tizimida muhim rol o'ynamoqda.

Ular bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish va moliyaviy inklyuziyani oshirishga xizmat qiladi. An'anaviy filiallarga tayanish kamayib, mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali xizmatlar kengaymoqda. Fintech kompaniyalari esa innovatsion moliyaviy echimlar — real vaqt rejimida to'lovlar, sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish, katta ma'lumotlar tahlili va blockchain texnologiyasini joriy qiladi.

Maqolaning maqsadi — raqamli bank xizmatlari va fintechning zamonaviy bank tizimidagi ahamiyati, samaradorlik, mijozlar tajribasi va moliyaviy inklyuziyaga ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Raqamli bank xizmatlari va fintech mavzusida olib borilgan tadqiqotlar global va mahalliy kontekstda keng qamrovli tahlilni talab qiladi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar e'lon qilindi.

Raqamli moliya – bu moliyaviy xizmatlarni raqamli texnologiyalar orqali taqdim etish jarayonini anglatadi. Fintech esa moliya va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirgan innovatsion yechimlar majmuasidir. Ushbu soha an'anaviy bank xizmatlarini avtomatlashtirish, mobil to'lovlar, onlayn kreditlash, investitsiya platformalari va moliyaviy maslahatlarni raqamlashaklda taqdim etishga imkon beradi.<sup>1</sup>

Baxriddinov (2022) o'zining doktorlik dissertatsiyasida aktivlarni samarali boshqarishga qaratilgan ilmiy nazariy yondashuvlarni tizimlashtirishga harakat qiladi. U o'zining ilmiy xulosasida aktivlarni samarali boshqarish quyidagilarni ta'minlashini ko'rsatib o'tadi: me'yoriy risk doirasida maksimal daromadni ta'minlashi va boshqa jihatdan xarajatlarni optimallashtirishga qaratilgan passivlar tarkibini shakllantirishga imkon berishi kabilarni keltirib o'tadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, aktivlar samaradorligi sof daromadlarni oshirishi, foizsiz daromadlarni oshirishi, foizsiz xarajatlarni kamaytirishi, bank ssudalarini tarkibini yaxshilash va likvidlikni oshirishga imkoniyat yaratishi lozim bo'lgan jihatlar bilan o'zining ifodasini topishini qayd etib o'tadi.<sup>2</sup>

Muxtarova (2025) raqamli bank xizmatlarining xavfsizligi va regulyator muvofiqligi masalalarini o'rgandi, kiberxavfsizlik va autentifikatsiya tizimlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidladi.<sup>3</sup> Qurbonov (2025) O'zbekiston tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayonini tahlil qilib, mobil banking foydalanuvchilar sonining ortishini va raqamli xizmatlar orqali mijozlar tajribasini yaxshilanishini qayd etdi.<sup>4</sup>

Samadkulov va Allanazarov (2025) raqamli bank va fintech integratsiyasi orqali kredit risklarini oldindan aniqlash, qarzlar monitoringini avtomatlashtirish va mijozlar uchun shaxsiylashtirilgan moliyaviy xizmatlar yaratish imkoniyatlarini tadqiq qildi.

<sup>1</sup> Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital Finance and FinTech: Current research and future research directions. *Journal of Business Economics*, 87(5), 537–580.

<sup>2</sup> Baxriddinov Sh. (2022) Tijorat banklarida aktivlarni samarali boshqarish yo'llari: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T.: TMI. – 57 bet.

<sup>3</sup> Muxtarova M. A. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va xavfsizligi. *Journal of Digital Service Research*. 2025.

<sup>4</sup> Qurbonov A. Tijorat banklarda raqamli transformatsiya jarayoni. *Green Economy and Development*. 2025

Ularning tadqiqoti fintechning bank tizimida innovatsion echimlar yaratish va qarz riskini kamaytirishdagi rolini yoritadi.<sup>5</sup> Sagdiyyeva (2025) raqamli bank xizmatlarining samaradorlikka ta'sirini o'rganib, mobil banking va onlayn platformalar yordamida banklar operatsion xarajatlarni 20–30% ga kamaytirishi va mijozlar bazasini kengaytirishi mumkinligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, u raqamli xizmatlar moliya inklyuziyasini oshirishga yordam berishini ta'kidladi.<sup>6</sup> Ushbu adabiyotlar sharhi maqola tadqiqotiga ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi va raqamli bank xizmatlari hamda fintechning samaradorligini, moliyaviy inklyuziya va innovatsiya jarayonlariga ta'sirini tushuntiradi.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ushbu tadqiqot raqamli bank xizmatlari va fintechning bank sektoridagi samaradorlik, moliyaviy inklyuziya va xizmat sifatiga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot sifatli va miqdoriy metodlar kombinatsiyasi asosida olib borildi, bunda mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro va milliy statistik ma'lumotlar, shuningdek, bank va fintech hisobotlari tahlil qilindi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

Ushbu bo'limda raqamli bank xizmatlari va fintechning bank tizimidagi samaradorlik, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va moliyaviy inklyuziyaga ta'siri ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari metodologiya bo'limida keltirilgan usullar va manbalar asosida olingan ma'lumotlarga tayangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli bank xizmatlari va fintech quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

**Mobil banking va internet-banking** – mijozlarga tez va qulay xizmat ko'rsatadi, hisob-kitoblarni real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini yaratadi.

**Fintech innovatsiyalari** – blockchain texnologiyasi, e-wallet, buy now pay later (BNPL), sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili orqali moliyaviy xizmatlarni shaxsiylashtirish va kredit risklarini oldindan aniqlash imkonini beradi.

**Bank va fintech hamkorligi** – strategik integratsiya orqali yangi moliyaviy mahsulotlar yaratish va innovatsion xizmatlarni mijozlarga taqdim etish imkonini beradi.

**Raqamli bank xizmatlari va fintechning asosiy komponentlari<sup>7</sup>**

1-jadval

| № | Komponent                                | Tavsif                                             | Ta'siri                                                             |
|---|------------------------------------------|----------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| 1 | <b>Mobil banking va Internet-banking</b> | 24/7 xizmat, tez va qulay tranzaksiyalar           | Mijozlar tajribasi oshadi, xizmat sifati yaxshilanadi.              |
| 2 | <b>Fintech innovatsiyalari</b>           | Blockchain, e-wallet, BNPL, AI, Big Data           | Kredit riskini kamaytirish, moliyaviy xizmatlarni shaxsiylashtirish |
| 3 | <b>Bank-fintech hamkorligi</b>           | Strategik integratsiya, yangi mahsulotlar yaratish | Innovatsion xizmatlar, raqobatbardoshlik oshadi                     |

Quyidagi jadvalda raqamli bank xizmatlarining ta'riflarini ko'rish mumkin.

<sup>5</sup> Samadkulov M., Allanazarov R. Digitalization Processes in the Banking System and the Development of FinTech Solutions. World Scientific Research Journal. 2025.

<sup>6</sup> Sagdiyyeva M. Raqamlashgan bank tizimi va yangi tendensiyalar. Economics and Innovative Technologies. 2025. doi:10.55439/EIT/vol13\_iss3/703

<sup>7</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Banklar samaradorligi va moliya inklyuziyasi<sup>8</sup>  
2-jadval

| No | Ko'rsatkich              | Natija  | Ta'siri                                                              |
|----|--------------------------|---------|----------------------------------------------------------------------|
| 1  | ROA (Return on Assets)   | +0,5–1% | Operatsion samaradorlik oshdi.                                       |
| 2  | NPL (muommoli kreditlar) | -3–5%   | Kredit riskini monitoring qilish va fintech yechimlari samaradorligi |
| 3  | Mijozlar bazasi          | +15–20% | Mijozlarga xizmat ko'rsatish va moliya inklyuziyasi yaxshilandi      |

Raqamli bank xizmatlari va fintech integratsiyasi bank samaradorligini oshiradi va moliyaviy inklyuziyani rivojlantiradi.

Fintech kompaniyalarining banklarga qanday tahdid solayotganini tushunish uchun nobank tashkilotlarning banklar bilan raqobatlashishini qiyinlashtiradigan o'ziga xos jihatlarni va raqobat ustunliklarini tushunish muhimdir. Ta'kidlash lozimki, banklar o'z balansining ikkala tomonidan ham, balansida ko'rsatilmagan faoliyatdan ham daromad oladilar. Aslida, odatdagi yirik bank eng yaxshi faoliyat portfeli sifatida qaraladi. Ushbu faoliyatlarning aksariyati nobank tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi yoki amalga oshirilishi mumkin, shuning uchun banklar ushbu faoliyatning barchasida bo'lmasa ham, nobank institutlar bilan raqobatlashadilar. Masalan, kredit berish bilan turli nobank kredit institutlari shug'ullanadi.

Biroq, nobank tashkilotlar mijozlariga depozit hisoblarini taklif qila olmaydi. Ko'p jihatdan omonatlarni qabul qilish funksiyasi tufayli banklar moliya tizimida asosiy rol o'ynaydi.

Ayni paytda, mijozlar o'z omonatlarini bankdan olib qo'yishlari tijorat banklari uchun muayyan risklarni keltirib chiqaradi. Natijada bank sektori likvidlilik muammolari ortidan butun moliya tizimiga xavf tug'dirishi mumkin. Shu boisdan, banklar faoliyati qattiq tartibga solinadi va bu holat, o'z navbatida, ularning operatsion xarajatlarini oshiradi. Banklar bilan raqobatlashmoqchi bo'lgan fintech kompaniyalari buni banklar taklif qilganidan ko'ra arzonroq va yaxshiroq moliyaviy xizmatlarni taklif qilish orqali amalga oshirishlari mumkin.

Agar tartibga solish bo'lmasa, banklar ko'pgina fintech innovatsiyalariga taqlid qilishi mumkin edi. Yirik universal banklar shunga o'xshash mahsulotlarni taklif qiluvchi fintech kompaniyalariga nisbatan ancha ustunlikka erishar edi, chunki ular allaqachon mustahkam mijozlar bazalariga ega. Bundan tashqari, fintech sektorining rivojlanishi bir qator qo'shimcha risklarni ham yuzaga keltiradi. Fintech kompaniyalari tomonidan tijorat banklari bozor ulushining muayyan qismining egallanishi Markaziy bankning bank sektoriga ta'sir doirasini qisqartiradi. Bu esa, o'z navbatida, tartibga solish bilan bog'liq risklarni keltirib chiqaradi. Biroq bu kabi risklarni tartibga solish imkoniyati mavjud. Masalan, moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyalarni litsenziyalash, ro'yxatga olish kabi talablar shular jumlasidan.

Citigroup ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilga borib AQSh banklari xodimlari soni 30 foizga, ya'ni bugungi kundagi 2,6 million kishidan 1,8 million kishigacha qisqarishi kutilmoqda.

Yevropada bank sohasida ishlaydigan xodimlar 38 foizga, ya'ni 2,9 milliondan 1,8 milliongacha kamayishi kutilmoqda.

<sup>8</sup> Muallif ishlanmasi.

Fintech banklarning biznes jarayonlarini yaxshilashga yordam beradigan raqamli protseduralarni taklif qiladi. Masalan, ilg'or qidiruv tizimlari avtomatik qaror qabul qilish tartib-qoidalari bilan birgalikda kreditni tezda tasdiqlashga olib keladi.

Tijorat banklari raqamli transformatsiya bilan bog'liq risklarni, xususan, maxfiy ma'lumotlarning chiqib ketishi, ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish va kiberxavfsizlik bilan bog'liq boshqa risklarni to'g'ri baholashi va boshqarishi kerak. Shu sababli, raqamli transformatsiya bo'yicha bosqichma-bosqich rejani tuzishdan oldin, joriy biznes jarayonlari va IT infratuzilmasi keng qamrovli qayta ko'rib chiqilishi kerak. Xususan, bank darajasidagi xavfsizlik bo'shliqlari tahlil qilinishi va raqamli yechimlar yordamida ularni qanday yo'q qilish yo'llari aniqlanishi zarur.

Ayni paytda, ta'kidlash o'rinliki, raqamli transformatsiya katta miqdordagi resurslarni talab etadi. Biroq, raqamli transformatsiyadan kutiladigan ijobiy natijalar ham talaygina. Birinchidan, misli ko'rilmagan darajadagi qulaylik, mijozlar foydalanish uchun qulay mobil ilovalar va xizmatlarga oson kirish. Ikkinchidan, foydalanuvchilarga o'z banklari bilan 24/7 aloqada bo'lish imkonini beruvchi ulanish. Nihoyat, bank institutlariga raqamli tendensiyalarni kuzatishda yordam beradigan innovatsiya shular jumlasidandir. Bank sektorining o'zgarishi banklarning to'liq raqamli xizmatlarni taklif eta boshlaganini, mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni minimallashtirish, kuchli va tezkor bank IT-mahsulotlari va tizimlarini joriy etishini anglatadi. Boshqacha aytganda, bank institutlari o'z-o'zidan texnologik kompaniyalarga aylanmoqda. Bank ichidagi IT va marketing bo'limlarining sinergiyasi raqamli mahsulotlarni ichki va tashqariga qulayroq yetkazib berish imkoniyatini beradi. Moslashuvchan xizmatlar, yangi biznes modellari va tezroq bozorga chiqish vaqti bilan texnologik chaqqonlikning mazkur darajasi raqamli transformatsiyaning mohiyatini belgilab beradi.

O'zbekistonda so'nggi paytlarda bank sektorini isloh qilishga ustuvorlik berilmoqda.

Xususan, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan keng foydalanish, raqamli texnologiyalarni bank sektoriga faol jalb etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu boisdan, bank sohasi regulatori tomonidan "Banklarni ro'yxatga olish va ularning faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirish kiritish orqali huquqiy aylanmaga "raqamli bank" atamasining kiritilishi ham bejiz emas. Ushbu normativ hujjatga ko'ra, "raqamli bank" — innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda (kassa xizmatlarini ko'rsatmasdan) bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatuvchi bank yoki uning tarkibiy bo'linmasidir.

#### **XULOSA**

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlari va fintech texnologiyalarining rivojlanishi bank sektorining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli transformatsiya banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda moliya inklyuziyasini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, fintech kompaniyalari banklar uchun nafaqat raqobatchi, balki innovatsion yechimlar orqali ularning faoliyatini modernizatsiya qiluvchi hamkor sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, raqamli bank xizmatlari kredit jarayonlarini avtomatlashtirish, risklarni boshqarish va muommoli kreditlar ulushini kamaytirishda ijobiy natijalar bermoqda.

Biroq, raqamli transformatsiya jarayonlari kiberxavfsizlik, ma'lumotlar himoyasi va reguliator muvofiqligi bilan bog'liq risklarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, banklar raqamli strategiyalarni joriy etishda ushbu xavflarni kompleks tarzda boshqarishi zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish va fintech kompaniyalari bilan strategik hamkorlikni kengaytirish; ikkinchidan, kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoyalash tizimlarini kuchaytirish; uchinchidan, reguliator talablariga moslashuvchan va innovatsion yondashuvlarni joriy etish. Mazkur choralar bank sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gomber, P., Koch, J.-A., & Siering, M. (2017). Digital Finance and FinTech: Current research and future research directions. *Journal of Business Economics*, 87(5), 537–580.
2. Baxriddinov Sh. (2022) Tijorat banklarida aktivlarni samarali boshqarish yo'llari: i.f.b.f.d. ... avtoreferati. – T.: TMI. – 57 bet.
3. Muxtarova M. A. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va xavfsizligi. *Journal of Digital Service Research*. 2025.
4. Qurbonov A. Tijorat banklarda raqamli transformatsiya jarayoni. *Green Economy and Development*. 2025
5. Samadkulov M., Allanazarov R. Digitalization Processes in the Banking System and the Development of FinTech Solutions. *World Scientific Research Journal*. 2025
6. Sagdiyeva M. Raqamlashgan bank tizimi va yangi tendensiyalar. *Economics and Innovative Technologies*. 2025. doi:10.55439/EIT/vol13\_iss3/703